# SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY ME'ROSIDA BARKAMOL SHAXS TA'LIM- TARBIYASI

**Jabborova Marifat Qodiraliyevna**
Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy – gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
***https://doi.org/10.5281/zenodo.7336276***

***Annotatsiya.*** *Sharq mutafakkirlarining ilmiy me'rosida barkamol shaxs ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Mutafakkirlarning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkuruni boyitib kelmoqda. Xozirgi kunda xam ularning bunyodkor g'oyalari yosh avlodni shaxs qilib tarbiyalashda o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.*

***Kalit so'zlar:*** *ilmiy me'rosida, ijtimoiy muhitni, pandnoma, qanoatbaxsh, mantiqiy tafakkurga, oliy kamolot, irsiyat, muhit, adovat, iroda.*

# ИДЕАЛЬНОЕ ЛИЧНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

***Аннотация.*** *В научном наследии восточных мыслителей большое внимание уделяется воспитанию всесторонне развитой личности. Эти взгляды мыслителей на протяжении нескольких столетий обогащали мышление наших предков. И сегодня их творческие идеи не утратили своего значения в воспитании подрастающего поколения как личности.*

***Ключевые слова:*** *научное наследие, социальная среда, пандномa, удовлетворительное, логическое мышление, высшая зрелость, наследственность, среда, враждебность, воля.*

# IDEAL PERSONAL EDUCATION IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF EASTERN THINKERS

***Abstract.*** *In the scientific heritage of Eastern thinkers, much attention is paid to the education of a comprehensively developed personality. These views of thinkers have enriched the thinking of our ancestors for several centuries. And today their creative ideas have not lost their significance in educating the younger generation as individuals.*

***Keywords:*** *scientific heritage, social environment, pandnoma, satisfactory, logical thinking, higher maturity, heredity, environment, hostility, will.*

## KIRISH

Sharq mutafakkirlarining ta'lim- tarbiya haqidagi qarashlarida yosh avlodni tarbiyalashga yonaltirilganligi muhum ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy me'rosida barkamol shaxs ta'lim- tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nosir al- Farobiy, Abu rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykavus, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning asarlarida yosh avlodni ma'nan shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Masalan Muhammad ibn Muso al Xorazmiy qarashlarida bola tarbiyasi masalasi quyidagicha talqin qilingan. “Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim”. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy bola tarbiyasida ijtimoiy muhitni o'rnini alohida qayd qilib. Bola shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishini ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor qaratgan: "Farzand qanchalik bilimli aqlli- xushli bo'lsa ota-ona yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". Yusuf Xos Hojib bola tarbiyasida ota- onaning ma'suliyatiga alohida e'tibor berib, "Kimning o'g'il- qizi erka bo'lsa, unda shu ota- onaning o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichkinaligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yoq, barcha jafo otaning o'zida; o'g'il- qizning hulq atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarni nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach, o'g'il qizim bor deb sevinadi; o'g'il – qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin" deb yozadi.

**TADQIQOT NATIJALARI**

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul maoliy Kaykavusning "Qobusnoma" sidir. Kaykavusning bu asari Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Bu asar qanchadan qancha avlodlarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

"Qobusnoma" falsafiy didaktik asar bo'lib, bu asar shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. "Qobusnoma" ning "Farzand pervarish qilmoq zikrida" degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag'ishlanadi. Asarda ota- onaning qator vazifalari sanab o'tiladi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- bolaga yaxshi ism qo'yish;
- Oqil va mehribon enaga topish;
-toy- tomosha qilib sunnat to'yi o'tkazish ;
- o'qish va yozishni o'rgatib, kasb- hunar va ilmli qilish;
- harbiylar ahlidan bo'lsa, sipoxiylikni o'rgatish.

Kaykavus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini alohida ta'kidlab o'tadi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimning tayog'i bilan qo'rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'ngli qolmasin".

Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiy ota-onaning yaxshi sifatlari orqali amalga oshirish masalasini ko'taradi. Masalan: "Yaxshi xotin-oilaning davlati va baxti, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi, husnli bo'lsa- ko'ngil ozuqi, xushmuomala bo'lsa jon oziqidir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib- intizom bo'ladi" deb yozadi.

Alisher Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta'siri va uning buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Yaxshi va yomon hulqlar va ularning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib beradi. Osib kelayotgan bolada yomon hulqlarni oldi olinmasa bora- bora illatga aylanadi- deb uqtiradi.

Abdurauf Fitrat bobomizning quyidagi fikrlariga amal qilib, yosh avlodga tarbiya berish muhum ahamiyatga ega. "Xalqning aniq maqsad sari xarakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat- hurmat topishi, jaxongir bo'lishi yoki zaif bo'lib, xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, ozgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota- onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq".

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy o'zining «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Fozil odamlar shahri», «Aql ma'nolari haqida», «Shaharni o'rganish haqida» kabi asarlarida o'zining

pedagogik qarashlarini aks ettirgan. Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olim. Uning fikricha:

- Ta'lim - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi.

Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilxomlantiruvchi so'zlar va majbur etish. Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy «Minerologiya», «Geodeziya»,

«Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» asarlarida o'zining ilmiy-pedagogik qarashlarini aks ettirgan. Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi. Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida uch narsa muxim rol' o'ynaydi:

1. Irsiyat.
2. Muhit.
3. Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

Abu Ali ibn Sino «Tadbir al-Manozil», «Tib qonunlari» «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Al-qonun», «Ishq haqida risola», «Xay ibnYakzon», «Donishnoma» kabi asarlar muallifi sifatida ta'lim-tarbiyaga doir o'z qarashlarini aks ettirgan. Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular:

- aldash
- rashk
- o'ch olish
- adovat
- bo'xton
- irodasizlik kabilardir.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga etkazishi kerak. Bu maqsadga etishish uchun inson qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi. «Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir».Zero, ma'rifatli kishi jasur, o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

**MUHOKAMA**

Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo‘lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo‘lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o‘z bilimining haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g‘oya yotadi.

**XULOSA**

Xulosa o'rnida davlat raxbari Sh. Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Dunyoga Buxoriylar, Beruniylar, Termiziylar, Moturidiylar, Xorazmiylardek buyuk alloma va aziz-avliyolarni bergan jonajon Vatanimiz yoshlari ulug ajdodlariga munosib bulib ulgayishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur". Demak, buyuk ajdodlarimiga xos azmu shijoat, xalqimizning metin irodasi, tobora ulg'ayib kelayotgan barkamol avlodimizga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish-eng dolzarb vazifamizdir -----Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, sharq mutafakkirlari o'zlarining pedagogik qarashlari bilan o'z davrlaridan ancha ilgarilab ketganlar. Mutafakkirlarning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkuruni boyitib kelmoqda. Xozirgi kunda xam ularning bunyodkor g'oyalari yosh avlodni shaxs qilib tarbiyalashda o'z qiymatini yo'qotgani yo'q.

**REFERENCES**


1. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. *Экономика и социум*, (6-1), 156-159.
2. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. *Теория и практика современной науки*, (5), 29-31.
3. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. *СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Интернаука"*, 37-38.
4. Қипчақова, Ё., Махмудова, М., & Умарова, З. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МЕҲНАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ. *Студенческий вестник*, (22-7), 9-10.
5. Қипчақова, Ё., Соибжонова, Ш., & Абдуқаюмова, С. (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Студенческий вестник*, (22-7), 11-12.
6. Ботирова, Н. (2020). Обучающие возможности тестовых технологий. *Профессиональное образование и общество*, (3), 68-71.
7. Ботирова, Н. Д. (2019). РАЗВИТИЮ ПРОДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. *Гуманитарный трактат*, (61), 4-6.
8. Ботирова, Н. Д. РАЗВИТИЮ ПРОДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ DEVELOPMENT OF PRODUCTIVE THINKING OF YOUNGER SCHOOLBOYS. *Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на*, 4.
9. Djurabaevna, B. N., & Ibrokhimovna, T. S. (2020). Specific features of teaching mathematics in primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(8), 302-307.
10. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.
11. Alimjanova, M. (2021). ABOUT GENDER STEREOTYPES. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, *2*(06), 72-76.

12. Alimjonova, M. Y. (2021). The role of the national values in the history of pedagogical education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(3), 1040-1044.
13. Shavkatovna, S. R. (2021). DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 97-102.
14. Vosiljonov, A. (2022). BASIC THEORETICAL PRINCIPLES OF CORPUS LINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(02), 173-175
15. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *2*, 121-123.
16. Shavkatovna, S. R. N. (2021). METHODICAL SUPPORT OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 74-76.
17. Maxamadaliyevna, Y. D., Òljayevna, Ò. F., Qizi, T. D. T., Shavkatovna, S. R. N., & Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. *Solid State Technology*, *63*(6), 14221-14225.
18. Jabborova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Экономика и социум*, (6-1), 129-132.
19. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIIY TAXALLUSLARNING QO ‘LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.
20. Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(9), 349-3
21. Sodirzoda, M. M. (2021). Ways to cultivate the creative thinking of beginners in the classroom through information and communication technologies. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(5), 955-958.
22. Sodirzoda, M. M. (2021). Techniques of using folk proverbs in the cultivation of oral speech of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(10), 481-484.
23. Sodirzoda, M. M. (2021). TO INCULCATE NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ETIQUETTE LESSONS. *Conferencea*, 31-32.
24. Турахўжаева, А., & Мухторий, М. (2018). СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ" СИСТЕМЫ" В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-4), 157-159.
25. Юлдашева, Д. М., Асқарова, Д., & Зоҳидова, М. (2021). Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. *Academic research in educational sciences*, *2*(2).
26. Джалолова, М., Рахманова, Э. Ю., & Косимова, Х. Н. (2021). ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Scientific progress*, *1*(6).
27. Косимова, Х. Н. (2021). КИТОБХОНЛИК КЎНИКМАСИНИ ШАКИЛЛАНТИРИШДА ОИЛАГА ПЕДАГОГИК ТАВСИЯЛАР БЕРИШ ТИЗИМИ. *Scientific progress*, *1*(6).
28. Нажмиддинов, Э. Х., Кучбоев, А. Э., Мухаммадиев, М. А., & Соатов, Б. Б. (2021). Эколого-морфологические характеристики нематод рода Rhabdochona-паразитов

обыкновенной маринки. Теория и практика борьбы с паразитарными болезнями, (22), 387-393.

29. Юлдашев, Э., & Нажмиддинов, Э. (2013). БРАКОНИДЫ (Hymenoptera, Braconidae) РОДА ROGAS NEES ФАУНЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ. In Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов (pp. 134-136).
30. Kuchboev, A. E., Najmidinov, E. K., Mukhamediev, M. A., Karimova, R. R., & Yildiz, K. (2021). Morphological and ecological features of some nematodes of the genus Rhabdochona in marinka obtained from Fergana Valley, Uzbekistan. Journal of Parasitic Diseases, 45(4), 1084-1089.
31. Vosiljonov, A. (2022). BASIC THEORETICAL PRINCIPLES OF CORPUS LINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, *3*(02), 173-175.
32. Usmanov, N. (2021). The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. *Oriental Journal of Social Sciences*, *1*(1), 33-37.
33. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). OBRAZLAR TALQINIDA LINGVISTIK IMKONIYATLAR. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *2*(Special Issue 3), 91-95.
34. Kalandarovna, Y. L. (2022). IDENTIFICATION AND EDUCATION OF GIFTED CHILDREN. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, *11*(10), 42-47.
35. Dilafruz, A. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VA OILADA GENDER XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(18), 183-189.
36. Юлдашева, Д. М., Асқарова, Д., & Зоҳидова, М. (2021). Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. *Academic research in educational sciences*, *2*(2), 926-931.
37. Askarova, D. I. (2022). THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Oriental Journal of Social Sciences*, *2*(02), 89-96.
38. Rahmonov, U., Ergashev, A., Nazhmetdinova, M., & Usmonova, S. (2021, November). IN THE FORMATION OF THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. In *Archive of Conferences* (pp. 36-39).
39. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *2*(2), 47-49.
40. Ulugbek, R. (2021, January). AN ANALYSIS OF WORDS WHOSE EMOTIONAL MEANING CHANGES IN MODERN ENGLISH LINGUISTICS. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 131-136).
41. Narziev, S., Asqarov, J., & Khokimyatov, A. (2021). Methodology Of Organization Of The Labor Process And Preservation Of Employees' Health. *The American Journal of Engineering and Technology*, *3*(04), 79-84.
42. Asqarov, N. I. (2021). Prospects For The Development Of The Investment. *The American Journal of Applied sciences*, *3*(01), 162-166.
43. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *11*(2), 11-16.

44. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemotechniques in Teaching Younger Schoolchildren. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *6*, 446-450.
45. Dilafruz, Y., Marifatxon, J., Rasuljonovna, E. Z., & Muqaddasxon, M. (2022). MAKTABGACHA TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUV. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, *2*(Special Issue 3), 121-125.
46. Zhabborova, M. R. K. (2021). Мактабгача таълим соҳаси талабаларида бошқарувчанлик қобилиятларини ривожлантириш. *Молодой ученый*, (17), 394-395.
47. Мирзабоев, Й. А. (2022). ТУР ЎЗГАРИШ ЧИЗИҚЛАРИ УЧТА БЎЛГАН, ГИПЕРБОЛИК ҚИСМЛАРИНИНГ ҲАММАСИ ХАРАКТЕРИСТИК УЧБУРЧАКЛАРДАН ИБОРАТ БЎЛГАН БЕШБУРЧАКЛИ СОҲАДА УЧИНЧИ ТАРТИБЛИ КЎРИНИШДАГИ ПАРАБОЛИК-ГИПЕРБОЛИК ТЕНГЛАМА УЧУН БИТТА ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛА ҲАҚИДА. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *1*(5), 363-366.